

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING ONA TILI FANIDAN NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Daminova Dilbar Melimurodovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

dilbardaminova9@gmail.com

[+998997470084](tel:+998997470084)

Annatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Nutqiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda o'quvchilar nutqini rivojlantirishning asosiy maqsadlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qish, tinglash, gapirish va yozish jarayonlarida qo'llaniladigan samarali usullar hamda interfaol metodlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, ijodiy fikrlashga yo'naltirish va madaniy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nutqiy kompetensiyasi rivojlangan o'quvchi adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda fikrini og'zaki va yozma ravishda to'liq, ravon va mantiqiy ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ona tili, nutqiy kompetensiya, o'qish, yozish, tinglash, gapirish, og'zaki nutq, yozma nutq, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, ijodiy fikrlash.

Nutqiy kompetensiya tushunchasi haqida aytib o'tadigan bo'lsak asosan nutqiy kompetensiya — bu o'quvchining fikrini og'zaki va yozma shaklda to'liq, ravon, mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri bayon qila olish qobiliyatidir. Muloqot jarayonida til vositalaridan o'rinli foydalanish, boshqalarning nutqini tinglash, tushunish va ularga javob qaytara olish mahoratidir. Boshlang'ich sinfda bu kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki keyingi fanlarni

o'rganishda ham o'quvchining tilni bilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy maqsadlari o'quvchida adabiy til me'yorlariga amal qilish ko'nikmalarini hosil qilish. O'qish, tinglash, gapirish va yozish malakalarini shakllantirish. Boy lug'at zahirasini oshirish, fikrni ijodkorona ifodalash, mustaqil nutq tuzish va mantiqiy bayon qilishga o'rgatishdan iborat.

Madaniyatli

muloqot qilishni yo'lga qo'yish, nutqiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy usullari.

1. O'qish orqali

Ifodali o'qish mashqlari. Matn mazmunini qayta hikoya qilish. Savol-javob asosida suhbat. Asar qahramonlari haqida o'quvchilar fikrini bildirish.

2. Tinglab tushunish orqali

o'qituvchi yoki o'quvchi o'qigan matnni diqqat bilan tinglash. Tinglangan matn yuzasidan savollarga javob berish. Matndan asosiy g'oyani ajratish.

3. Og'zaki nutq mashqlari

Ertak, hikoya, topishmoq va maqollarni aytish. Rolli o'yinlar (dialoglar yaratish). Rasm asosida hikoya tuzish. Kundalik hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish.

4. Yozma nutq mashqlari Yozma diktant,

bayon va insho ishlari. So'z birikmasidan gap tuzish. Gaplardan matn tuzish. Matnni davom ettirish yoki o'zgartirib yozish.

5. Interfaol metodlar "Aqliy hujum" (fikrlarni erkin bayon qilish). "Klaster" (g'oyalarni guruhlash). "Insert" (matnni belgilash orqali tahlil). "Rol o'ynash o'yinlari". "Savol-javob zanjiri".

Shakllantirishda e'tibor beriladigan jihatlari bola nutqi ravon, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Lug'at boyligi asta-sekin kengayib borishi zarur. Nutqda imlo va talaffuz me'yorlari o'rgatiladi. Ijodkorlik (yangi gaplar tuzish, yangi g'oyalar qo'shish) rag'batlantiriladi. Audiovizual vositalar (rasm, video, audio ertaklar)dan foydalanish samarali natija beradi. Kutiladigan natijalar nutqiy kompetensiyasi shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchisi fikrini erkin va ravon ifodalay oladi. Matn

mazmunini anglab, qayta hikoya qila oladi. Lugʻat boyligi keng boʻladi, ogʻzaki va yozma nutqda adabiy til qoidalariga amal qiladi, muloqot jarayonida oʻz fikrini madaniyatli tarzda bayon etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi davlat taʼlim standartlarida ham boshlangʻich taʼlimning asosiy vazifalaridan biri sifatida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish belgilangan. Boshlangʻich sinflarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning zaruratligi oʻquvchilarda toʻgʻri talaffuz va imloni shakllantirish. Ogʻzaki va yozma nutqda adabiy til meʼyorlariga amal qilishni oʻrgatish. Lugʻat boyligini oshirish. Oʻquvchilarda ijodiy fikrlash va erkin nutq tuzish qobiliyatini shakllantirish. Madaniy muloqot odatlarini singdirishni qamrab oladi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish usullari oʻqish asosida ifodali oʻqish mashqlari, matn mazmunini qisqa va toʻliq qayta hikoya qilish. Asar qahramonlariga baho berish. Tinglab tushunish asosida tinglangan matn yuzasidan savol-javob qilish matndan asosiy gʻoyani ajratish, oʻqituvchi aytgan gapni oʻz soʻzi bilan qayta aytish. Ogʻzaki nutq mashqlari ertak, topishmoq va maqol aytish. Rolli oʻyinlar va dialoglar tuzish, rasm asosida hikoya qilish, yozma nutq mashqlari, diktant, bayon, insho ishlari, gaplardan matn tuzish, matnni davom ettirish, interfaol metodlar “Aqliy hujum” - oʻquvchilar fikrini erkin bayon qiladi. “Klaster” — tushunchalarni guruhlash orqali fikrni izchil ifodalash. “Rol oʻynash” — muloqot koʻnikmalarini mustahkamlaydi. “Insert” - matn ustida faol ishlashni taʼminlaydi. Eʼtibor beriladigan jihatlar-nutqning ravonligi, aniqligi va izchilligi, oʻquvchilarda faol lugʻat boyligini shakllantirish, oʻquvchilar nutqini ijodiy yondashuvga oʻrgatish. Texnik vositalar va koʻrgazmali materiallardan foydalanish. Oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish. Kutiladigan natijalar nutqiy kompetensiyasi rivojlangan boshlangʻich sinf oʻquvchisi-fikrini erkin va ravon bayon qiladi, ogʻzaki va yozma nutqda adabiy til meʼyorlariga amal qiladi, matn mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, boy lugʻat zahirasi ega boʻladi; turli muloqot vaziyatlarida oʻzini erkin tutadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki o'z fikrlarini erkin, ravon va mantiqiy tarzda ifodalay olishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili fanidan nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki nutqiy kompetensiya o'quvchining kelgusida barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiyasi shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchisi, fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin, ravon va mantiqiy ifodalashni biladi. Matn mazmunini anglab, uni qayta hikoya qila oladi. Lug'at boyligi kengayadi va adabiy til me'yorlariga amal qiladi. Madaniyatli muloqot qila oladi, suhbatdoshni hurmat qiladi, ijodiy yondashuv asosida yangi g'oyalar bildiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ularning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki kelajak hayotida ham o'z fikrini erkin ifodalay olishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

5. Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent"METODIST NASHRIYOTI"2023.
6. Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. -T.1964.
7. PIRLS 2011 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin, Enn M. Kennedi, Ketil L. Trong, Marian Sainsberi.
8. Daminova Dilbar Melimurodovna METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal . -October -2023, 2023-yil.88-92-bet
9. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH

JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 03, March. (2023). -3-4-
mart 2023, 2023-yil.307-311-betlar

10.Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna
PEDAGOGPEDACOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING
MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. WEB
OF SCINTIST: WEB OF SCINTER:INTERNATIONAL SCINTIFIC
RESEARCH JOURNAL. -3.Mar..2023, 2023-yil.971-976-bet

11. Daminova Dilbar Melimurodovna .TIMSS TADQIQOTLARIDA
MATEMATIK BILIM VA KO'NIKMALAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH. Globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalar va oliy
ta'limning dolzarb muammolari. Metodist nashriyoti" 2023-yil. 532-534-bet

12.Daminova Dilbar Melimurodovna ONA TILINI FANLARARO O'QITISHDA
NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. INTER
EDUGATION.CLOBAL STUDY. -2024.N4(1), B:122-128-bet

13.Daminova Dilbar Melimurodovna.Ona tilini fanlararo o'qitishda nutqiy
faoliyatni rivoglantirish metodikasi. Til va adabiyotlar.uz 84-86-betlar

14. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Salimova Ruxshona Chori qizi. KICHIK
YOSHDAGI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING VAZIFALARI
,METODLARI VA VOSITALARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS.53-57-betlar.
